

# Indoneziyaning tropik jannatida unutilmas hordiq

**2023 10 Aprel**

Uzbekistan Airways uch yillik tanaffusdan so'ng Toshkent-Jakarta-Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlarni tiklamoqda. Qulay ulanish reyslari tufayli Uzbekistan Airways yo'lovchilari nafaqat Indoneziya poytaxti, balki butun dunyodan sayyohlarni o'ziga tortadigan tropik jannatmakon – Bali oroliga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Parvozlari shu yilning 26-apreldan boshlab haftaning chorshanba kunlari zamonaviy va qulay Dreamliner 787 avialaynerida amalga oshiriladi.

Parvozlari jadvali:

- Toshkentdan uchish - 09:00, Jakartaga kelish - 17:30;
- Jakartadan uchish - 19:00, Toshkentga kelish - 03:30.

Vaqtlar har bir manzil uchun mahalliy hisoblanadi.

Bir tomon uchun aviachiptalar narxi 10-aprel holatiga ko'ra 4 739 819 so'mdan, borish va qaytish uchun esa 8 454 211 so'mdan boshlanadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) sayti orqali 3% chegirma bilan, shuningdek, "UzAirways" mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilishingiz mumkin.